



**AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN FIRIBGARLIK
JINOYATINING SABABLARI VA UNGA IMKON BERGAN
SHAROITLAR**

*IIV Akademiyasi Jinoyatchilikka qarshi kurashish
faoliyati fakulteti katta o'qituvchi-metodisti*

Saidova Sitora Alisherovna

Sitora.saidova.9595@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ayollar tomonidan sodir etilayotgan firibgarlik holatlarining sabablari, shakllari va ularni oldini olishning samarali mexanizmlari o'rganilgan. Tahlil jarayonida firibgarlikning psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillari ko'rib chiqilib, ayollarni firibgarlikka undovchi sharoitlar yoritilgan. Shuningdek, statistik ma'lumotlar asosida jinoyatchilik dinamikasiga baho berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, firibgarlikning oldini olishda huquqiy savodxonlikni oshirish, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini kuchaytirish va gender yondashuvga asoslangan yondashuvlar muhim omil bo'lishi ta'kidlangan. Maqolada huquqshunoslar, ijtimoiy ishchilar va siyosatchilar uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan.*

Аннотация: *В данной статье исследуются причины, формы и эффективные механизмы предотвращения случаев мошенничества, совершаемого женщинами. В процессе анализа рассматриваются психологические, социальные и экономические факторы мошенничества, освещаются условия, побуждающие женщин к совершению мошеннических действий. Также на основе статистических данных дается оценка динамике преступности. По результатам исследования подчеркивается, что повышение правовой грамотности, усиление мер социальной профилактики и применение подходов, основанных на гендерных особенностях, являются ключевыми факторами в предотвращении мошенничества. Статья*



содержит практические рекомендации для юристов, социальных работников и политиков.

Abstract: This article examines the causes, forms, and effective mechanisms for preventing instances of fraud committed by women. The analysis process explores the psychological, social, and economic factors of fraud, and illuminates the conditions that drive women to engage in fraudulent activities. Additionally, the dynamics of criminal behavior are evaluated based on statistical data. According to the research findings, it is emphasized that enhancing legal literacy, strengthening social prevention measures, and implementing gender-based approaches are crucial factors in fraud prevention. The article provides practical recommendations for legal professionals, social workers, and policymakers.

Kalit soʻzlar: firibgarlik, maxsus profilaktika, individual profilaktika, latentlik, mol-mulk, kriminogen, viktimologik, huquqbuzar ayollar, jinoiy xulq atvor, iqtisodiy munosabatlar, professional jinoyatchilar.

Ключевые слова: мошенничество, специальная профилактика, индивидуальная профилактика, латентность, имущество, криминогенные факторы, виктимологические аспекты, женщины-правонарушители, преступное поведение, экономические отношения, профессиональные преступники.

Keywords: fraud, special prevention, individual prevention, latency, property, criminogenic factors, victimological aspects, female offenders, criminal behavior, economic relations, professional criminals.

Yangi Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 66-moddasida mulkdor oʻziga tegishli boʻlgan mol-mulkka oʻz xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak[1]ligi belgilangan.

2023-yil 23-iyundagi, firibgarlikka oid sud amaliyoti toʻgrisidagi Oʻzbekiston Respublikasining Oliy sudi plenumi qarorining 8-bandiga muvofiq



quyidagicha “Agar shaxs o‘zganing mulkini yoki unga bo‘lgan huquqni mazkur mulk yoki huquq unga berilishi sharti bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarmaslik niyatida olgan yoki egallagan bo‘lsa, qilmish aybdorda o‘zganing mulkini yoki unga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritishga nisbatan qasd faqat o‘zganing mulki yoki unga bo‘lgan huquq qo‘lga kiritilgunga qadar paydo bo‘lgan holdagina firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. O‘zganing mulkini talon-toroj qilishga qaratilgan qasd mavjudligi to‘g‘risida, jumladan, aybdor tomonidan soxta hujjat yoki kafolat xatlaridan foydalanish, qarz mavjudligi yoki mulk garov ostidaligi to‘g‘risidagi ma’lumotni yashirish, bitimda taraflardan biri sifatida ishtirok etishi uchun soxta korxona (tashkilot) tuzilishi, kredit mablag‘laridan maqsadga zid foydalanish yoxud ularni naqdlashtirish kabilar guvohlik berishi mumkin. Qayd etilgan holatlar o‘z o‘zidan shaxsni firibgarlik sodir etishda aybdor deb topish uchun asos bo‘lmaydi, shu tufayli, shaxsning o‘z majburiyatlarini bila turib bajarish niyati bo‘lmaganligi har bir muayyan holda ishning barcha holatlaridan kelib chiqib aniqlanishi shart”[2] deb ta’rif berilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, biz tomonimizdan tadqiq qilinayotgan ayollar tomonidan sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining oldini olish va fosh etishning murakkab jihatlaridan yana biri jinoyat sodir etish jarayonida va tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida ayol shaxsining o‘ziga xos psixofiziologik xususiyatlari va holatlari bilan bog‘liqligidir.

Ayollar tomonidan sodir etilgan firibgarlik jinoyatlari ko‘pincha ishonchdan suiiste’mol qilish, yolg‘on ma’lumot berish, hujjatlarni qalbakilashtirish, kredit mablag‘larini noqonuniy olish yoki davlat subsidiyalaridan asossiz foydalanish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bunday jinoyatlar ko‘plab fuqarolarning huquqlarining buzilishiga, moliyaviy zarar ko‘rishiga olib keladi. Shu sababli, mazkur muammoni chuqur o‘rganish, firibgarlik jinoyatining ayollar o‘rtasida tarqalish omillarini aniqlash va samarali profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Bugungi kunda jinoyatni fosh etish va aniqlashdan ko‘ra uni oldini olishga dolzarb masala sifatida qaralmoqda.



Huquqshunos olim A.G.Zakirova ta'kidlashicha, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va shartlarini aniqlash va bartaraf etish, huquqbuzar ayollarni toifalarga bo'lish hamda ularga individual va maxsus profilaktika choralarini ko'rish samaradorligini oshirish lozim [3] degan xulosaga kelgan.

Fikrimizcha, ayollarda osonlik bilan pul topishga bo'lgan ishtiyoq va o'rganish, ulardagi ishonuvchanlikni keyinchalik boshqa shaxslarni ishontirish uchun kuchli qurol sifatida foydalanishga olib kelmoqda. Qarz olib uni 10 yoki 20 yilda qaytarishdan ko'ra, birovlarini aldash orqali olingan pullarni sarf qilish va buning uchun jazoni ijro etish muassasasida jazo muddatini o'tab chiqish osonroq hamda qulayroq bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'z-o'zidan ayollar firibgarligining oshishiga sabab bo'lmoqda.

O'z kasbi orqali jinoyat sodir etuvchi ayollar, birovga qarshi yomon maqsadni ko'zlagan yoki qasddan jinoyat sodir etgan shaxslar sifatida tushuniladi. O'z kasbi orqali jinoyat sodir etuvchi ayollar toifasi boshqacha qiyofaga kirish qobiliyati orqali atrof-muhit sharoitlariga moslashish, nozik, ishonchli va murakkab harakatlar, firibgarlik, yuqori darajadagi o'g'irlik, g'arazlik motivining ustunligi hisoblanadi.

Shuningdek, rivojlangan iqtisodiyot va murakkab iqtisodiy munosabatlar ushbu guruh jinoyatchilaridan tobora rivojlanish va intellekt sharoitlariga moslashishni talab qiladi.

Ayollar jinoyatchiligi umuman jinoyatchilik tuzilishida o'sib, respublikamizda 1990-yillarning boshlarida ayollar tomonidan sodir etilgan jami jinoyatlarning 10 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 12,5 foizga yetdi. U jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy shart-sharoitlarga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, demokratik o'zgarishlar, uning dinamikasi, holati, tuzilishi, sifat va miqdoriy tavsiflarining o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, firibgarlikning oldini olishga qaratilgan samarali



choralarni ishlab chiqishga hissa qo'shadi va huquqiy, psixologik hamda ijtimoiy yo'nalishlarda kompleks yondashuvni taqdim etadi.

Y.O. Filippova va A.V. Filippovlarning fikricha, emansipatsiya jarayonlari g'arb madaniyatining elementlari sifatida kriminogen xususiyatga ega. Chet el madaniyatining kengayishi natijasida ularning rivojlanishi ayollar jinoyatchiligining ko'payishiga olib keladi [5].

Xususan, Q.R. Abdurasulovning fikricha, ayollar savdo, moddiy-texnikaviy ta'minot va oziq-ovkat ta'minoti, har xil servis xizmatlari (maishiy xizmatdan turistik xizmatgacha) ko'rsatish sohalarida moliya-kredit va tijorat faoliyati bilan bog'liq lavozimlarni egallagan xolda, asosan xo'jalik, mansabdorlik va o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarini sodir etganlar. Bunda ish bilan band bo'lgan ayollarning jinoiy xulq-atvorini, ularning mansabi bilan bog'liq bo'lgan tamagirlik motivi belgilagan [6].

Olimlarning fikr mulohazalari va jinoyatchilik tahlillaridan kelib chiqib, ayollar firibgarlik jinoyatchiligining oshib borishiga o'z navbatida aholi sonining ortishi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, demokratik va zamonning rivojlanishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi, ijtimoiy tarmoqlarning ommaviylashuvi (telegram, instagram, feysbuk, twitter va hakoza) zamonaviy yangiliklarning tezlashuvi, shuningdek, huquqiy savodxonlik darajasining yetarli emasligida ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda sodir etilayotgan jinoyatlar firibgarlik yoki bosqinchilikning obyektiv tomoniga kiruvchi barcha harakatlarni mustaqil ravishda amalga oshiradigan, faqat ayollardan iborat bo'lgan bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi holatlarini kuzatish mumkin va albatta bu salbiy holatdir.

Muayyan jinoyatni ayollar tomonidan sodir etilishining o'ziga xosligi yuzasidan G.U. Axmedova, Z.S. Zaripov, A.G. Zokirova, I. Ismailov, S.S. Niyozova, Y.M. Karaketov, M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyevlar o'z asarlarida zamonaviy ayollar jinoyatlarida professionallik kabi hodisaning mavjudligi haqida fikr bildirishgan.

Yuqoridagi olimlar fikrini ma'qullagan holda, o'g'irlik yoki firibgarlik jinoyatini sodir etgan ayollarni professional jinoyatchilar qatoriga kiritish mumkin.



Firibgarlik jinoyatini sodir etuvchi ayollar jinoyat sodir etganda jinoiy qobiliyatlari shakllanadi, rivojlanadi va mustahkamlanadi. Buning natijasida firibgar ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar puxta o'ylangan, yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan, jinoyat sodir etish qurollarini va jinoiy yo'l bilan olingan boyliklarni mohirona yashirish bilimlari shakllangan holda boshqalardan ajralib turishadi.

Firibgarlik jinoyati esa ayollar jinoiy faoliyatning eng professional turlaridan biridir. Firibgar ayollarning o'zgalarning ishonchiga kirish qobiliyatidan foydalanadi. Misol tariqasida, Namangan viloyati Yangi Namangan tumanida yashovchi 26 yoshli (ayol) Robiya (ismlari o'zgartirilgan) "Open Budget" loyihasi uchun ovoz to'plab berishini yolg'ondan aytib, Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida yashovchi 39 yoshli (ayol) Mahliyoning ishonchiga kirib, kartasidan 2820000 so'm miqdoridagi pul mablag'larini firibgarlik yo'li bilan o'z kartasiga o'tkazib olgan [7] va jinoiy javobgarlikka tortilgan.

A.A. Otajonovning fikricha maishiy-oilaviy sharoitlarda g'arazli yot tuyg'ular va boshqalar hisobidan qonunga xilof ravishda boylik orttirish kabi salbiy illatlarning mavjudligi, jinoiy tajovuz oqibatlaridan yetarli darajada himoya qilish tizimining samarali ishlab chiqilmaganligi jinoyatga daxldorlik bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishiga sabab va sharoit yaratayotganligini aytib o'tgan[8].

Yuqoridagi olimlarning fikriga qo'shilgan holda jinoyatchilar subyektini firibgarlik jinoyatini sodir etuvchi jinoyatchilar bilan solishtirganda, firibgarlik jinoyatini sodir etuvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch, o'zgalarni ishonchiga kirish, g'arazli maqsadlarni amalga oshirishda o'z harakatlarida harakatchanlik va qat'iylik кўплигини кўриш мумкин. Ularda tashvish va ijtimoiy mavqedan norozilik kamroq darajada ifodalanadi, tajovuzkorlik ancha past bo'ladi. Ular o'zlarining xatti-harakatlarini ko'proq nazorat qiladilar. Ular ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor talablariga yaxshi yo'naltirilganligi, ularni ichidan rad etgan holda uyg'unlashgani bilan ajralib turadi.

Agar 2013-yildagi statistik ma'lumotlarni 2024-yildagiga taqqoslab o'rgansak, ayollar jinoyatchiligining umumiy 10 yillik o'zgarishi 17,2 foizdan 12,2 foizga tushib borganini ko'rishimiz mumkin [9]. Ammo ayollar firibgarligini



2013-yil statistikasi ma'lumotlarini 2024-yildagiga taqqoslaydigan bo'lsak, 2013-yilda Respublika miqyosida 1817 ta ayollar firibgarligi jinoyati, 2023-yilda 2176 ta [9] ayollar firibgarligi jinoyati sodir etilib, ushbu jinoyatning oshganligini kuzatishimiz mumkin.

X.T.To'xtayevaning fikricha, ayollar jinoyatchiligidan oshishining sababiga mintaqalardagi ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayollar jinoyatning o'g'rilik, bezorilik, tovlamachilik, firibgarlik hozirda avj olayotgan «shantaj»lik turlarini ko'proq sodir etishmoqda.

Og'ir

va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etish ko'p hollarda 25-35 yoshli ayollarga to'g'ri kelmoqda [10].

Firibgarlik latentligi yuqori jinoyatlardan biridir. Jabrlanuvchilarning ularga nisbatan jinoyat sodir etilganligi to'g'risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmasligi ham firibgarlikning oldini olishda kechikish darajasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Jarqo'rg'on tumanida yashovchi A.T., tanishi A.D.ning 15 gramm bo'lgan tilla zanjirini foydalanib turish uchun olib, bir necha oy ichida ushbu tilla zanjir o'rniga 20 grammlik tilla zanjir, zirak va uzuk ham qo'shib berishligini va'da qilib, ushbu tilla zanjirni sotib o'z ehtiyoji uchun sarflab yuborgan [11] bo'lsa, yana bir holatda Toshkent shahri Uchtepa tumanida yashovchi D.ga chet eldan parfyumeriya mahsulotlarini olib kelib berishni va'da qilib, 82 ming AQSH dollar miqdoridagi pullarni olib o'z ehtiyojlari yo'lida bir necha oy davomida aldab yurib ishlatib yuborgan [12]. Mazkur misollardan shuni ko'rish mumkinki, firibgarlik jinoyatini sodir etilishi muayyan bir vaqtda emas, aldosh, ishonchga kirish bilan birga uzoq va davomli vaqt mobaynida sodir etiladi. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyatchi shaxsining psixologik portretiga e'tibor qaratilsa, ayollarda o'zini bechora qilib yoki juda boy ishbilarmon qilib ko'rsatish xususiyatlarini ko'rish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda ayollar tomonidan sodir etiladigan firibgarlik jinoyatining o'ziga xosligi quyidagilar bilan ajralib turadi:



- firibgarlik jinoyatlari soni yildan-yilga ortmoqda, bunda ayollar ishtirokidagi holatlar ham sezilarli ulushni tashkil qilmoqda;
- ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishining asosiy sabablari — iqtisodiy tanglik, ijtimoiy bosim, huquqiy savodsizlik, psixologik bosim, jamiyatdagi gender tengsizlik va yaqin atrof-muhitning ta'siri;
- mavjud qonunchilik ayollar jinoyatchiligiga nisbatan umumiy yondashuvni qo'llamoqda, ammo genderga xos profilaktika choralari yetarli emasligi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Firibgarlik jinoyatining oldini olish — bu faqat jazolash masalasi emas, balki jamiyatdagi gender tengsizlik, ijtimoiy muhofaza, huquqiy ong va iqtisodiy imkoniyatlar muammosini kompleks hal qilish vazifasidir. Ayollar jinoyatchiligini kamaytirish uchun, ularning jinoyatga borishiga sabab bo'layotgan omillarni yo'qotishga qaratilgan genderga asoslangan, zamonaviy va ijtimoiy yondashuvlar zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-<https://lex.uz/docs/-6445145> (murojaat vaqti 02.05.2025-yil).
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi Qarori Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti- <https://lex.uz/en/docs/-6523582> (Murojaat vaqti: 03.05.2025-y.).
3. Закирова А., Ходжайев Ш. Криминологический анализ профилактики правонарушений среди женщин //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 49-54.
4. Abdurasulova Q.R. “Ayollar jinoyatchiligi va ularning oldini olish muammolari”. O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: yu.f.d.,prof. M.H.Rustamboyev. – T.: TDYI nashriyoti, 2009. –17 bet.
5. Филиппова Е.О., Филиппов А.В. Профилактика женской преступности // Инновационная наука. 2016. №12-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/profilaktika-zhenskoy-prestupnosti> (Murojaat vaqti: 09.02.2025-yil).



6. Q.R.Abdurasulova “Ayollar jinoyatchiligining jinoyat xuquqiy va kriminologik muammolari” Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: yu.f.b.f.dok-ri. avtoreferat dis.: –T., 2006. –B. 24.
7. Open Budjetda ovoz to‘plab beraman deb, plastikdagi pullarni o‘zlashtirgan ayol ushlandi // <https://uznews.uz/uz/posts/66084> (Murojaat vaqti: 08.07.2024-yil).
8. Otajonov A.A. *Jinoyatga daxldorlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jiatlar: Yurid. fan. nomz. dis. avtoref. – T., 2009. – B.15..*
9. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2> (Murojaat vaqti 03.05.2025-y).
10. To‘xtayeva X.T., Mavlonova D.J. Buxoro viloyati jinoyatchilik geografiyasining geodemografik xususiyatlari //География: природа и общество. – 2022. – №. 2.
11. <https://iiv.uz/oz/news/ayol-firibgarlik-yoli-bilan-tilla-zanjirni-ozlashtirganligi-malum-boldi> (Murojaat vaqti: 09.02.2025-yil).
12. <https://sputniknews-uz.com/20180724/Firibgarlik-ilib-82-ming-dollarni-o-zlashtirib-yuborgan-al-ushlandi-8952893.html> (Murojaat vaqti: 09.02.2025-yil).